

Termiz shahrida Alisher Navoiy tavalludining 581-yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda



Termiz shahrida Alisher Navoiy tavalludining 581-yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda

Bugun, Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti Maktabgacha va texnologik ta'lim fakultetida Hazrati Mir Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag'ishlab "Alisher Navoiy-she'riyat mulkinging sultoni" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat Kengashi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Sh.Turdiyev, Termiz shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi rahbari O.Xudoyqulovlar ishtirok etdi.

"Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan qiziqarli savol javoblar bilimdonlar"

savol-javob viktorinasi o'tkazilib, tadbir tashkilotchilari tomonidan faxriy yorliq va kitoblar bilan taqdirlandilar.

Tadbirda talabalar tomonidan g'azal va ruboiylar, sahna ko'rinishlari, raqs-qo'shiqlar ijro etildi.

